

## YOSHLARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA – AJDODLAR MEROSINING TUTGAN O'RNI

**Mavludaxon Najmetdinova**

Farg'ona davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7199311>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasida ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan o'zbek she'riyati hamda o'zbek xalq musiqa san'atining o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** meros, mumtoz, tarbiya, estetika, kuy, she'riyat, musiqa, badiiy, asar.

## РОЛЬ НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

*Аннотация.* В статье освещается роль и значение узбекской поэзии и узбекского народного музыкального искусства, которая является богатым наследием в воспитании подрастающего поколения молодёжи.

**Ключевые слова:** наследие, классика, воспитание, эстетика, мелодия, поэзия, музыка, художественный, произведение.

## THE ROLE OF THE HERITAGE OF ANCESTORS IN THE FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF YOUNG PEOPLE

*Abstract.* The article highlights the role and significance of Uzbek poetry and Uzbek folk music, which is a rich heritage in the upbringing of the younger generation.

**Key words:** heritage, classic, education, aesthetics, melody, poetry, music, artistic, work

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektorda ta'kidlanganidek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etishni dolzarb masala deb belgilandi.

Shundan kelib chiqqan holda 5 muhim tashabbus doirasida yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratilgan qator ishlar rejalashtirildi. Jumladan: yoshlar o'rtasida 5 muhim tashabbusning barcha yo'nalishlari bo'yicha qator tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, marafon va chempionatlar, uchrashuvlar, bahs-munozaralar tashkil etilmoqda.

### MUXOKAMA VA NATIJALAR

Mustaqil mamlakatimizda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish milliy va umuminsoniy qadriyatlarning barcha imkoniyatlaridan oqilona hamda samarali foydalanishni taqozo etadi. Jahon xalqlarining ilg'or madaniyati milliy ma'naviyatimizni yanada yuksak darajaga ko'tarishda ijobiy ta'sir etishi mumkinligi inkor etib bo'lmasligini hayotning o'zi isbotlab kelmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida boshqa xalqlar merosining ijobiy tomonlaridan qanchalik foydalanmaylik, baribir, o'zbek xalqining milliy musiqa madaniyatini yoshlar tarbiyasiga qaratilgan barcha omillarining o'ziga xosligi ma'naviy-madaniy kamolotimizning asosi bo'lib qolishini ta'kidlashimiz joizdir.

Bu masalada biz o'tmishdan bizga meros bo'lib kelgan xalq pedagogikasining an'analari muhim kasb etib kelayotganining guvohidirmiz. Bu mumtoz an'analar uzoq davrlar davomida rivojlanib, falsafiy tafakkurni umumlashtirib, hikmatli so'zlar, xalq maqollari, ayrim aytim hamda laparlari, yalla hamda maqom taronalari shaklida kelib ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi sifatida o'z ahamiyatiga ega bo'lganligini ko'ramiz. Ayniqsa, bu ma'naviy-madaniy boylik yozma manbalarda, tosh va taxta bitiklarda siymolarimiz, Mahmud Qoshg'ariy, yusuf Xos Hojib va boshqalarning mumtoz asarlarida o'z aksini topganligini bilamiz. Bu mumtoz meros namunalarida ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina muhim muammolar ilgari surilgan. Bular hozirgi kunimiz uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy omillardir.

Kuy, ohang – inson ruhidagi shohiy kayfiyat ifodasi. Musiqiy asarning g'oyasi, tasavvuri dastlab hayolda paydo bo'lib, so'ngra ijro tufayli sadolanish yo'li bilan jonlanadi, muayyan kuy shakliga aylanadi. Ohang sadosining umri juda qisqa: paydo bo'lishi bilanoq bir zumda nazardan qochadi, g'oyib bo'ladi. Lekin ta'sirli tovush, ohang eshituvchi qalbida iz qoldiradi, zavq uyg'otadi va shu lazzatli holatga qaytadan intilishga da'vat etadi.

Bu jozibani Mavlono Abdurahmon Jomiy juda go'zal ifodalaganlar: «Nag'malar ta'lifotida uchraydigna shunday xususiyat borki, ular bir-biriga muvofiq (muloyim) bo'lganda ruhga tez yetib borib, huzur baxsh etish bilan uni butunlay chulg'ab, o'ziga rom etadi. Lekin ruh undan huzur ola boshlaganda u yo'qlik pardasiga o'ranib, g'oyib bo'ladi. uning yo'qligini umidsizlik hosil qilsa, yana umidsizlik kayfiyati tamom bo'lmasdan turib, keyingi paydo bo'lgan nag'ma avvalgi huzurning qaytib kelishini ta'minlaydi va shu tarzda nag'malar tahlifiy muvofiqlikda o'zaro almashib takrorlanib turadi».

Kuy zavqini saqlab qolishning eng oddiy yo'llaridan biri dilda paydo bo'lgan holatni yaqin qalblar bilan baham ko'rish. Agar kuyning dastlabki ohangi qabul qilinsa, befarq qolmasdan ta'sir o'tkazsa, mazkur zavq lazzatini davom ettirish ishtiyoqi uyg'otadi. Ushbu ruhiy holatda ijrochi va eshituvchining qalblari bog'lanib, ular kuydan birdek ozuq ola boshlaydi. Ana shunday his-tuyg'ular tutashuvidan uyg'unlashgan musiqa jarayoni yuzaga keladi va unda ijrochi ijodkor – yaratuvchi, eshituvchi esa uning muxlisiga aylanadi. Bu zavq tobora rivojlanib, ohanglar birlashib, kuy jumllariga, ular esa o'z navbatida yanada yirikroq birikmalarga aylanib boradi. SHu tariqa birlamchi zarb va ohang zarrachalaridan butun boshli kuy paydo bo'ladi. Ular tutashuvidan yirik asarlar yuzaga keladi. Demak, musiqa shunchaki tovushlar majmuasi emas, aksincha, parda va usullarning muvofiqlashgan tizimidir. Eng muhimi, kuy bu yoqimli tovushlar vositasida ifodalangan ma'no. Ma'nosiz tovush esa shovqin-surondan bo'lak narsa emas. Ayniqsa, an'anaga aylangan e'tiborli kuylar negizida shunday chuqur ma'nolar yotadiki, xalq xotirasi ularni mumtoz asarlar sifatida saqlab keladi. «Xalq musiqasi» deb nomlanuvchi benazir musiqa shajarasi ham shu yo'sinda voyaga etgan.

Xalq musiqasi san'atining an'anaviy xayot tarzi, ahloq normalari hamda musiqaning ma'naviy oziq, insonni kamolatga undaydigan dunyoqarashlardan kelib chiquvchi boy mentaliteti mavjud. El-yurt orasida dong taratgan sozandalar, o'z kasbining piru ustozlari bizda doim xurmat va izzatda bo'lib kelgan. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Bayqaror, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Amir Umarxon, Feruz kabi yirik davlat arboblari, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinodek olimu fuzalolar, Imom G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Pahlavon, Mahmud, Baxovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy, Boborahil Mashrabga

o'xshagan din peshvolari soz san'atiga hech qachon bidyut deb qaralmaganlar, aksincha, uni inson qalbiga chuqur ta'sir o'tkazuvchi omil va oliy ne'mat deb bilganlar.

Xalqimiz tomonidan ijod etilgan badiiy-musiqiy asarlar o'z navbatida badiiy she'riyatsiz kamol topa olmasligini to'la tushungan ijodkorlar bu ikki buyuk san'at merosida bahramand bo'lishlikka barchamizni undagan, har bir asarning tub negizida go'zallikka, hayotiy barkamollikka chorlagan.

Biz o'tmishda va hozirgi kunimizda tinimsiz ijod samarasiga yetishish borasida faoliyat ko'rsatib kelgan musiqashunoslar bastakorlar hamda kompozitorlarning hayoti hamda ijod yo'llari yoshlarimiz uchun namuna bo'lishini istab qolardik. Bu boradi mumtoz musiqa merosimizni sarchashmasi bo'lgan – «SHashmaqom» va uning turkumini tashkil etgan taronalari. SHu'ba hamda qismlaridan o'rin olgan musiqiy asarlar xalqimizning ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi.

O'z vaqtida notali yozuvlarga tayangan holda chop etilgan «SHashmaqom» turkumlari barcha professional hamda an'anaviy havaskorlik jamoalarining kundalik faoliyatida salmoqli o'rin egallab kelayotganligi, bu meros mumtoz musiqa namunalarini o'z vaqtida yosh iste'dod egalari tomonidan ijro etilishi albatta musiqa shinavandalari, ijodkor yoshlarning estetik dunyoqarashini shakllantirishga hech shubha yo'q deb ayta olamiz. Ishonchimiz komilki, o'sib kelayotgan bugungi kun yoshlari, o'rta hamda kasb-hunar kollej yoshlari, oliygoh hamda musiqa va san'at universitetlarida tahsil ko'rayotgan bo'lg'usi san'at ahlining o'quv-tarbiyaviy rejalari hamda dasturlarida maqom ijrosi o'z o'rnini oladi. Mumtoz musiqiy merosi namunalarining yoshlar estetik kamolotini shakllantirishda bosh omillardan biriga aylanib qoladi, deb ishonamiz.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda , yoshlarning estetik-ta'lim-tarbiyasini shakllantirishda o'tmish ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan mumtoz meros namunalarini mukammal o'rganish hamda yoshlarimizning kamolotga yetishishlarida bu merosga bo'lgan qiziqish hamda e'tiborini qaratish har bir ta'lim-tarbiya tizimida faoliyat ko'rsatayotgan murabbiy-ustozlarning, musiqa o'qituvchisi hamda madaniyat xodimlarining kasbiy vazifalari ekanligini yana bir bor ta'kidlab qolamiz.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018 yil 6-sentyabrdagi SHahrisabz shahrida o'tkazilgan "Xalqaro maqom san'ati anjumani"ning tantanali ochilish marosimidagi so'zlagan nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbusi
4. I.Qirg'izov "So'z san'ati" halqaro jurnali 2020 yil.129-bet Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shahri» nomli asaridan
5. D.Namozova. O'zbekiston davlat san'ati va madaniyat instituti xabarлари 2018 yil /2(6) 75 bet.
6. Al-Farobiy.Kitob al-musiqa al-kabir.Tasdir d-r Mahmud al Hafniy,Qohira,1967.

7. Najmetdinova, M., & Odinahon, S. (2021, October). HISTORY OF TRADITIONAL PERFORMING ARTS. In *Archive of Conferences* (pp. 89-91).
8. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmuhammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
9. Камбаров, А. А., & Нажметдинова, М. М. (2019). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ. In *Условия социально-экономического развития общества: история и современность* (pp. 148-151).
10. Нажметдинова, М. (2022). Общественно-культурные мероприятия теоретические основы. *Общество и инновации*, 3(3/S), 473–479. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss3/S-pp473-479>
11. Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., & Atabayeva, S. (2022, February). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. In *Archive of Conferences* (pp. 57-60).
12. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиковна (2022). ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Science and innovation*, 1 (1), 892-903. doi: 10.5281/zenodo.653977